

PRAGMATIKA-TILSHUNOSLIKNING ENG MUHIM BO‘G‘INI

Qulmanova Mohinur Anvar qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti Xorijiy til va adabiyoti kafedrasini o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11395196>

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslikning muhim yo‘nalishi hisoblangan pragmatika sohasi haqida batafsil ma‘lumot berilgan

Kalit so‘zlar. tilshunoslik, pragmatika, metod, xorijiy til, nutq, til vositalari, matn, og‘zaki nutq.

Yurtimizda olib borilayotgan islohatlarda «Mamlakatimizda bir necha xorijiy tillarni biluvchi zamonaviy kadrlar tayyorlash, xorijiy tillar bo‘yicha ilmiy ishlar olib borish, til o‘rgatish metodologiyasini takomillashtirish» ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanishi jahonning rivojlangan mamlakatlarida ilm-fan va texnika sohalarining so‘ngi yutuqlaridan mamlakatimiz yoshlarini bohabar etishda adekvat tarjimashunoslikni amalga oshirish va buning uchun tilshunoslik sohasiga doir ilmiy tadqiqot ishlarini kengaytirish bugungi kunning muhim masalalaridan biri sifatida ko‘riladi. O‘zbek tilidan ingliz tiliga amalga oshiriladigan tarjima jarayoni, uning o‘ziga xos xususiyatlari, unda tarjimon ahamiyat berishi lozim bo‘lgan masalalar, tilshunoslikda asiyatning pragmatik xususiyatlari va uni qayta tiklashning o‘ziga xosliklari, ish faoliyatida tarjimonga yengillik berishi mumkin bo‘lgan jihatlar va u yo‘l qo‘yishi mumkin bo‘lgan xatolarning oldi olinadi.

Bugungi kunda “Pragmatika” — “Pragmalingvistika” nomli yangi soha sifatida rivojlanib, o‘rganilmoqda va tadqiqotlar olib borilmoqda. Pragmalingvistika tilshunoslikning mustaqil yo‘nalishi sifatida o‘tgan asrning 70- yillarida shakllandi. 1970- yilda Dordrext shahrida “Tabiiy tillar pragmatikasi” (Pragmatics of natural languages) mavzusida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi. Konferensiya yakunida barcha qatnashuvchilar yagona: “Tabiiy til vositasida bajariladigan muloqotning pragmatik xususiyatlari ushbu muloqotning sintaktik va semantik xususiyatlari kabi lingvistik nazariyasi doirasida o‘rganilishi lozim” fikrga kelishdi. “Pragmalingvistika” fani gnoseologiya, tasavvuf, mantiq, (formal, dialektik), ilmiy tadqiqot metodologiyasi, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, psixologiya, axborot texnologiyalari fanlari bilan bog‘liq bo‘lib, “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, “Til tarixi”, “Tilshunoslik nazariyasi”, “Sotsiolingvistika”, “Psixolingvistika”, kabi fanlar bilan uzviy va ketma-ket bog‘lanadi. I. A. Boduen de Kurtene ta‘biri bilan aytganda, “til faqat til jamoasini tarkib toptirgan individual miyalarda, ko‘ngillarda va individlarning psixikasida mavjud bo‘ladi”.

Pragmatika – yunonchada “ish”, “harakat” degan ma‘nolarni anglatib, nutqdagi til birliklarining funktsionalligini o‘rganuvchi semiotika va tilshunoslikning sohasidir. U Sokratdan oldingi davrlarda ham qo‘llanishda bo‘lgan va keyinchalik uni J.Lokk, E.Kant kabi faylasuflar Aristoteldan o‘zlashtirganlar. Shu tariqa pragmatizm oqimi yuzaga kelgan. Bu oqimning asosiy taraqqiyot davri XIX-XX asrlardir. Ayniqsa, XX asrning 20-30- yillarida pragmatizm g‘oyalarining keng targ‘ibi aniq sezila boshladi. 1 Amerika va Yevropada pragmatikaning keng yoyilishida Ch.Pirs, R.Karnap, Ch.Morris, kabilarning xizmatlarini alohida qayd etmoq kerak. XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Amerikada hukmron bo‘lgan falsafiy pragmatizm yo‘nalishining asoschilaridan biri Charlz Pirs edi. Ushbu falsafiy tizimning asosiy g‘oyasi semiotik belgining ma‘no-mazmunini ushbu belgi vositasida bajarilayotgan harakatning samarasi, natijalari, muvaffaqiyati bilan bog‘liq holda o‘rganishdir. Bu tamoyil muallifi Ch. Pirs birinchilardan bo‘lib, belgi nazariyasi doirasida kommunikativ faoliyat

subyekti omilini inobatga olish lozimligini uqtirdi. Pragmatika tilshunoslik fanining yangi bir nazariy va amali tarmog'i sifatida insonning ijtimoiy faoliyatini o'zida mujassamlashtirgan nutqiy jarayon, nutqiy vaziyat ta'siri bilan namoyon bo'luvchi nutq ishtirokchilariga xos kommunikativ niyat bilan aloqador masalalarni o'rganadi.

Pragmatika insonning ijtimoiy faoliyatini o'zida qamrab oluvchi nutq jarayoni, muayyan aloqa vaziyati orqali namoyon bo'ladi. Lingvistik Pragmatika aniq shakl, tashqi ko'rinishga ega emas; uning doirasiga so'zlovchi sub'yekt, adresat, ularning aloqa-aralashuvdagi o'zaro munosabatlari, aloqa-aralashuv vaziyati bilan bog'liq ko'plab masalalar kiradi. Masalan, nutq sub'yekti bilan bog'liq holda quyidagi masalalar o'rganiladi: bayonning oshkora va yashirin maqsadlari (biron-bir axborot yoki fikrni yetkazish, so'roq, buyruq, iltimos, maslahat va'da berish, uzr so'rash, tabriklash, shikoyat va boshqalar); nutq taktikasi hamda nutq odobi turlari; suhbat, so'zlashish qoidalari; so'zlovchining maqsadi; so'zlovchi tomonidan adresatning umumiy bilim jamg'armasi, dunyoqarashi, qiziqishlari va boshqa xislatlariga baho berilishi; so'zlovchining o'zi bayon qilayotgan xabarga munosabati kabilar. Pragmatikada nutq adresati, o'zaro aloqaga kiruvchilarning munosabatlari, muayyan aloqa vaziyati singari omillar bilan bog'liq qolda ham ko'plab masalalar o'rganiladi. Pragmatika g'oyalari evristi(yo'naltiruvchi) dasturlash, mashina tarjimasini, informatsion-qidiruv tizimlari va boshqalarni ishlab chiqishda qo'llanadi.

Pragmatika so'zlarning so'zma-so'z ma'nosi bilan ularning ijtimoiy kontekstdagi mo'ljallangan ma'nosi o'rtasidagi farqni ko'rib chiqadi. Bu kinoya, metafora va niyat kabi narsalarni hisobga oladi.

Pragmatika insonning ijtimoiy faoliyatini o'zida qamrab oluvchi nutq jarayoni, muayyan aloqa vaziyati orqali namoyon bo'ladi. Lingvistik Pragmatika aniq shakl, tashqi ko'rinishga ega emas; uning doirasiga so'zlovchi sub'yekt, adresat, ularning aloqa-aralashuvdagi o'zaro munosabatlari, aloqa-aralashuv vaziyati bilan bog'liq ko'plab masalalar kiradi. Masalan, nutq sub'yekti bilan bog'liq holda quyidagi masalalar o'rganiladi:

- bayonning oshkora va yashirin maqsadlari (biron-bir axborot yoki fikrni yetkazish, so'roq, buyruq, iltimos, maslahat va'da berish, uzr so'rash, tabriklash, shikoyat va boshqalar);
- nutq taktikasi hamda nutq odobi turlari;
- suhbat, so'zlashish qoidalari;
- so'zlovchining maqsadi;
- so'zlovchi tomonidan adresatning umumiy bilim jamg'armasi, dunyoqarashi, qiziqishlari va boshqa xislatlariga baho berilishi;
- so'zlovchining o'zi bayon qilayotgan xabarga munosabati kabilar.

Keyingi yillarda tadqiqotchilar e'tiborini o'ziga ko'proq jalb qilib kelayotgan tilning pragmatik jihatlari tarjimondan chuqur lingvistik bilimdan tashqari yana ko'pgina boshqa fanlar, madaniyatlar ma'lumotlaridan ham xabardor bo'lishni talab qiladi. Tilshunoslikda pragmatik vositalardan o'rinli foydalanish esa aslyatda ifodalangan zaruriy ma'noni to'la-to'kis etkazib berishga xizmat qiladi. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, mazkur dissertatsion ishning amaliy ahamiyati shundan iboratki, tilshunoslikning pragmatik xususiyatlari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lib, ularning tahlilini, tilshunoslikda berilishini, asosli misollar bilan yoritilgan bo'lib mavzu bo'yicha talabalar uchun qo'shimcha yoki asosiy qo'llanma sifatida o'zlarining mustaqil ishlarida, referatlarida foydalanish yoki ma'ruza matnlariga maxsus

mavzu sifatida kiritish mumkin. Bundan tashqari o'rganilgan korpus bilimlarni amalda qo'llash, tilshunoslikning pragmatik xususiyatlaridan foydalanib tarjima jarayonida uchraydigan har qanday leksik-grammatik muammolarni bartaraf qilish, shuningdek, nutq, badiiy asarlarda duch kelingan muammolarni tahlil qila olish tadqiqotning amaliy ahamiyatini tashkil etadi. Pragmatika tilshunoslikning nisbatan yangidan shakllangan, insonning nutq faoliyatini o'rganishga, bunday faoliyatning maqsadi, mazmuni, bunday maqsad va mazmunning og'zaki va yozma matnda verbal va noverbal ifodalanish vositalarini, ularning nutq aktidagi o'rnini, kommunikativ ta'sirini, so'zlovchi va tinglovchi nutqidagi turlicha munosabatlarni lisoniy belgilarda ifodalanishini o'rganuvchi fan tarmog'idir.

Pragmatik ma'no o'ziga oid bo'lgan leksemani qo'llovchi xalq ruhiyatini aks ettirib turadi. Shunday ekan, u leksik ma'noning milliyiligini ta'minlovchi asosiy vosita bo'lib qoladi. O'zbek tilida nutqiy protsessda metafora hosil bo'lar ekan, bu hodisa hosila sememada pragmatik sema hosil bo'lishi bilan xarakterlanadi. Pragmatika tilning nutqiy vaziyatlar bilan bog'liq xususiyati bo'lib, nutq subyekti, nutq ob'ekti tushunchalari muhim o'rin egallaydi. Nutq obyektining ijobiy yoki salbiy xususiyatlarini so'zlovchi munosabati bilan uyg'unlikda ta'sirli ifodalashda, so'zlashuv nutqida emotsional ekspressivlikni oshirishda frazeologizmlarning alohida o'ri bor.

References:

1. Shahriyor Safarov. Pragmalingvistika. Toshkent, 2008.
2. Hakimov M. "O'zbek pragmalingvistikasi asoslari". Toshkent "Akadernashr", 2013. Bet 176
3. Петров В.В. Философия, семантика, прагматика // Новое в зарубежной лингвистики. Вып. XVI. – М., 1985. - С. 471.
4. Hakimov M. K. O'zbek tilida vaqt ma'noli lug'aviy birliklar va ularning matn shakllantirish imkoniyatlari. Farg'ona, 2004.
5. Qo'ng'urov R. Begmatov E. Tojiyev Y. Nutq madaniyati uslubiyat asoslari. Toshkent, 1992.